

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 95 144-43-56, E-mail: vilekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Qambarov Giyosbek Sayfidinovich

Sana: 14-10-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

261550 - SONLI

Obyekt nomi: SAM 3086 Cho'ponota, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Cho'ponota dahasi, RTS 10606	
Buyurtmachi:	UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS MCHJ
Bosh loyihachi:	UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	"Qurilish Mega Janub" MChJ (Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan topshiriqning 9-bandiga asosan)
Qurilish turi:	Joriy ta'mirlash
Murojaat raqami:	091756

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. "UMS" MChJ Ma'muriy direktor M. R. Kamalidinov tomonidan 2025-yil 23-iyunda tasdiqlanib, rasmiylashtirilgan topshiriq.

1.2. "UMS" MChJ Ma'muriy direktor M. R. Kamalidinov tomonidan 2025-yil 27-iyunda tasdiqlanib, rasmiylashtirilgan hamda Samarqand shahridagi "Xizmat ko'rsatish markazi" rahbari S. Sh. Zaxidov bilan kelishilgan nuqson dalolatnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Ekspertiza ko'rigiga qadar obyektning joriy ta'mirlash ishlarining loyiha tashkiloti tomonidan nuqsonli dalolatnomaga asosan tayyorlangan smeta hujjatlari. Umumiy qiymati 12% QQS bilan hisoblanganda-18 909,093 ming so'mni tashkil etadi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. "Samarqand viloyati, Samarqand shahar, Cho'ponota dahasi, RTS 10606 "SAM 3086" baza stansiyasining joriy ta'mirlash" ishlarida nuqson dalolatnomasida keltirilgan ish turlari yuzasidan joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirishdan iborat.

4. Loyihalananayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Smeta hujjatlarida muhandislik ta'minoti ishlari ko'zda tutilmagan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Smeta hujjatlari loyihachi tomonidan tasdiqlanib, smeta qiymatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo'shimcha taklif va e'tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **18 909 093** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

0 so'mga kamaytirilib, **18 909 093** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **16 883 119** so'm

QQS: **2 025 974** so'm

6.1. Ekspertiza jarayonida soha ekspertlari xulosalarining izohlariga muvofiq smeta hujjatlariga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.2. Shuningdek, buyurtmachi, loyiha va bosh pudrat tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-sonli Farmoni talablariga qat'iy rioya qilinsin. mukamm

6.3. Smeta hujjatlariga asosan joriy ta'mirlash ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori Nizomining 3-bob, 29-bandiga muvofiq, Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

6.5. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan buyurtmachi va pudratchining boshqa xarajatlari miqdori bo'yicha "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi" DM majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

6.6. Tavsiya etilayotgan obyektning tavsiyaviy qiymati buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-sonli qarori talablariga rioya etilgan holda hamda ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan joriy ta'mirlash ishlari narxi tavsiyaviy qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, "Samarqand viloyati, Samarqand shahar, Cho'ponota dahasi, RTS 10606 "SAM 3086" baza stansiyasining joriy ta'mirlash" obyektning smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Kasimxodjayev Saidjamoliddin Saydasrarovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Nurmetov Timur Kurambayevich